UDK: 811.112.2+37.018.1 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a83**

O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA DAFN MAROSIMI BILAN BOG‘LIQ LEKSIK BIRLIKLAR TAHLILIGA DOIR

К АНАЛИЗУ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, СВЯЗАННЫХ С ПОХОРОННЫМ ОБРЯДОМ, В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

ON THE ANALYSIS OF LEXICAL UNITS RELATED TO THE FUNERAL CEREMONY IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES

Zilola Pazilova Shuhratovna[1]

[1]**Zilola Pazilova Shuhratovna** − Fag‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va nemis tillaridagi dafn marosimi bilan bog‘liq leksik birliklar dafn, aza, ma’raka, janoza, ta’ziya, a’zador, marhum, marhumninig yaqinlari, go‘rkov, qabriston, ruhoniy, musiqa, motam yig‘isi, nutq, duo, gulbarglar solingan savat, oq sharlar, oq kabutarlar, hamdardlik, tasalli, vidolashuv, gullar va gulchambarlar, o‘zbek va nemis motam marosimidagi kiyimlar, motam bilan bog‘liq marosimlar, motam bilan bog‘liq joy nomlari kabilar atroflicha tadqiq etiladi, ularning o‘iga hos hususiyatlari y’ani ohshash va farqli jihatlari ochib beriladi.

Аннотация

В данной статье лексическими единицами, относящимися к похоронному обряду, в узбекском и немецком языках являются дафн, аза, марака, джаноза, тазия, член, усопший, родственники усопшего, погребение, кладбище, священник, музыка, траур, плач, речь, молитва, корзина с лепестками, белые воздушные шары, белые голуби, сочувствие, утешение, прощание, цветы и венки, узбекская и немецкая траурная одежда, траурные обряды, названия мест траура и др., и их отличительные черты, т. е. выявляются сходства и различия.

Abstract

In this article, the lexical units related to the funeral ceremony in Uzbek and German languages are dafn, aza, maraka, janoza, tazia, member, deceased, relatives of the deceased, burial, cemetery, priest, music, mourning, cry, speech, prayer, basket with petals, white balloons, white doves, sympathy, consolation, farewell, flowers and wreaths, Uzbek and German mourning clothes, mourning ceremonies, place of mourning names, etc. are thoroughly researched. Also distinctive features of the above mentioned lexical units, similarities and differences are revealed.

Kalit so‘zlar: *dafn, aza, ma’raka, janoza, ta’ziya, a’zador, marhum, go‘rkov, ruhoniy, hamdardlik, vidolashuv.*

Ключевые слова: *похороны, траур, похороны, соболезнование, член, усопший, похороны, священник, сочувствие, прощание.*

Key words: *funeral, mourning, funeral, condolence, member, deceased, funeral, priest, sympathy, farewell.*

KIRISH

Ma’lumki, xalqlarning an’ana va urf-odatlarini aks ettiruvchi leksik birliklarni lingvokulturologik jixatdan qiyosiy planda tadqiq etish orqali ularning madaniyatlari, dunyoqarashlari, ruhiyatlari, kundalik turmush tarzlari, tarixiy va milliy o‘ziga xos jihatlari va xalqlar o‘rtasida ko‘p asrlik boy tarixi davomida to‘plagan fazilatlar ma’lum darajada o‘rganiladi. Biroq o‘tgan asrda o‘zbek tilshunosligida ularni qiyosiy planda tadqiq etishga yetarlicha e’tibor qaratilmadi. Etnografik leksikaga doir bir til doirasida olib borilgan ayrim izlanishlarni e’tiborga olmaganda, bu masala lingvistlar diqqatidan ancha chetda qoldi.

O‘zbek etnografiyasiga doir materiallar filologiya sohasida to‘y marosimlari nomlari, to‘y qo‘shiqlarining lingvistik talqini, o‘zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqi hamda dialektal asosda o‘rganilgan [1.2.3.4.] bo‘lib, qiyosiy tilshunosligida urf-odat ifodalovchi motam bilan bog‘liq leksik birliklar qiyosiy planda alohida tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada o‘zbek va nemis xalqlarining motam bilan bog‘liq lug‘aviy birliklari tahlil etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma’lumki, o‘zbek va nemis xalqlarining urf-odatlarida dafn marosimi bilan bog‘liq leksik birliklar alohida o‘rin tutadi. Dastavval biz dafn leksik birliklarining o‘zbek va nemis tillaridagi izohli lug‘atlariga murojaat qilamiz. O‘zbek tilining izohli lug‘atida dafn leksemasiga quyidigicha ta’rif beriladi.

Dafn - O‘lgan kishi (mayit)ni ko‘mish, qabrga qo‘yish marosimi.

Dafn etmoq (qilmoq)

Odil buvani Sobir o‘z qo‘li bilan dafn etdi.

R.Fayziy, Cho‘lga bahor keldi

Dafn marosimi tushdan keyin tugab, odamlar tartibsiz ravishda tarqala boshladilar.

P.Tursun, O‘qituvchi [2.24 b]

Nemis tilining izohli lug‘atida esa dafn (**Beerdigung**) leksemasiga quyidagicha ta’rif berilganini ko‘ramiz.

beerdigen; beerdigte, hat beerdigt; j-n b. einen Verstorbenen *mst* im Rahmen e-r Trauerfeier in e-m Sarg ins Grab legen (lassen) = begraben, bestatten, beisetzen || *hierzu* **Beerdigung** die (dafn etmoq; kimnidir dafn etmoq; marhumni dafn marosimida tobutda qabrga qo‘yish = dafn qilmoq, ko‘mmoq, yerga qo‘ymoq) [3. S 124]

Ko‘rinadiki, o‘zbek va nemis urf-odatlarida dafn leksemasining ma’nosi bir-biridan deyarli farq qilmaydi.

Endi esa o‘zbek xalqidagi motam bilan bog‘liq marosimlar nomlari, joy nomlari va shaxs nomlari o‘rtasidagi leksik birliklarga to‘xtalib o‘tamiz.

Ma’lumki, motam bilan bog‘liq kichik marosimlarga ***aza, ma’raka, janoza, ta’ziya, uch oshi, yetti, yigirma, qirq, ellik ikki, yil, qovun, gul, qor yog‘di, payshanbalik, qada, xudoyi, ehson, hayit (iyd)*** singari lug‘aviy birliklar kiradi.

Yuqoridagi urf-odat ifodalovchi leksik birliklar o‘zbek xalqi tarixida uzoq yillar davomida qo‘llanilgan bo‘lsa, bugungi kunda ortiqcha isrofgarchilik va sarf-xarajatlarni kamaytirish maqsadida va muqaddas kitob Qur’oni karimda qayd etilmaganligi sababli ularning ba’zilari o‘tkazilmayotganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, ***uch oshi, yetti, ellik ikki, qovun, gul, qor yog‘di*** kabilar.

M.Qahhorova yuqorida aytib o‘tilgan marosimlar turli hududlarda turlicha shakllarda o‘tkazilishini, ushbu marosimlarning aksariyati diniy e’tiqodlar natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, ba’zilari islom dinida qayd etilmaganini, keyinchalik kishilar tomonidan asrlar osha o‘ylab topilgan marosimlar ekanligini tadqiq etgan. [4.65 b]

Nemis tilshunos olimi R.Sörries dafn marosimi ifodasi quyidagi ma’noga egalligini aytib o‘tadi. “Dafn marosimi odatda qabriston cherkovida yoki mahalliy sharoitga qarab cherkovda, shafoat va duolar esa ko‘pincha motam zallarida bo‘lib o‘tadi. Ma’lumki, e’tiqodlarga ko‘ra xristian diniga mansub bo‘lgan nemis xalqi katolik yoki evangelik mazxablariga kiradilar. Dafn marosimi ham bu ikkala mazxabda sezilarli darajada farqlanishini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, katoliklarning dafn marosimlarida mahalliy urf-odatlar va marhumning yaqin qarindoshlari xohishlariga qarab dafn marosimidan avval yoki keyin diniy Yevxaristik marosimi cherkovda o‘tkazilishi kuzatiladi.” [5. 89 b]

U.Nillson va E.Erikssonлар odatda azadorlar qabristonni tark etayotgan paytda oilaning bir qismiga aylangan eng yaqin qarindoshlar ta’ziya izhorlarini qabul qilish uchun qolishlarini, ko‘pincha ruhoniylardan tashqari ma’ruzachilar, dafn marosimiga qatnashayotgan yaqin kishilar ham azadorlarga tasalli so‘zlarini aytishlarini, ko‘p hollarda tasalli so‘zlari sifatida “Ich äußere nochmal mein Mitleid, Empfangen Sie mein Mitleid” (Men sizga yana bir bor hamdardligimni izhor qilaman yoki hamdardligimni qabul eting) deb aytishlari odat tusini olganligini ta’kidlaydilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma’lumki, musulmon xalqlarida jumladan, o‘zbek xalqida azadorlik belgisi sifatida ayollar uchun bir yil davomida ro‘mol o‘rash, odmi kiyinish, ya’ni qizil rang yoki ochiq rangli liboslar kiymaslik, erkaklar uchun esa ta’ziya kunlari milliy chopon va do‘ppi kiyish odatga aylangan. Keyingi vaqtlarda milliy qadriyatlarimizni tiklash maqsadida erkaklar do‘ppi kiyishlari targ‘ib qilinmoqda.

Nemis xalqi urf-odatlariga ko‘ra esa marhumning ayol jinsiga mansub bulgan yaqinlari dafn marosimida qora libos, qora ko‘zoynak taqqan holda qatnashadilar. [5. 56 b]

Ko‘rinadiki, nemis xalqining dafn marosimida azadorlar uchun qora libos, qora ko‘zoynak leksemalari azadorlik belgisi sifatida xizmat qiladi.

Nemis xalqining ko‘p katolik jamoalarida dafn marosimi ruhoniy tomonidan olib boriladi. Bugungi kunda ko‘plab insonlar cherkov xizmatlari va dafn marosimlarini birlashtirib o‘tkazmoqdalar.

Har ikki xalqda dafn marsimida go‘rkov leksik birligi ham alohida o‘rin tutadi. O‘zbek xalqida go‘rkov birligi marhum uchun qabr tayyorlash, ma’lum bir qabristonning obodonchilik ishlariga ma’sul shaxs sifatida yoki qabristonga marhumni xotirlab kelganlar uchun alohida quron tilovat qilib turuvchi kishi sifatida e’tirof etiladi.

Fikrimizga yanada oydinlik kiritish sifatida o‘zbek va nemis izohli lug‘atlariga murojaat etamiz.

Go‘rkov

1. Qabristonda go‘r qazuvchi kishi.

Qoratoy cholni uyda qoldirib, O‘roz bilan birga mozorga, go‘rkovga jo‘nadi. (Oybek, Tanlangan asarlar)

2. Ko‘chma Yo‘q qiluvchi; yo‘q qilib o‘rnini oluvchi.

Qozi ham, Asad qori ham jadid maktablariga qarshi edi, ular bu xil maktablarga diniy maktablarning go‘rkovi deb qarar edilar. (M. Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha) [2. 109 b]

Totengräber der; -s, -; j-d, der beruflich auf dem Friedhof die Gräber gräbt II *hierzu* **Totengräberin** (Qabristonda qabr qazuvchi go‘rkovlik kasbi II **go‘rkov ayol**) [3. 1071 b]

Ko‘rinadiki, go‘rkov leksik birliga har ikkala xalqda ham bir xil ma’noni anglatsada, o‘zbek xalqida go‘rkov erkak jinsiga mansub bo‘lishi odat bo‘lsa, lekin nemis xalqida go‘rkov ayollar ham mavjud ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Nemis xalqida ko‘p hollarda go‘rkovlar marhumning yaqin qarindoshlariga marosimni o‘tkazish uchun o‘z xonalarini taklif qilishadi, bu yerda qarindoshlarning, ma’ruzachi va ruhoniyning xohish-istaklari amalga oshiriladi.

Tobut yoki urna (kuydirilgan jasadning kuli saqlanadigan idish)ni qabrga qo‘yishda, go‘rkovning motam zali o‘z xizmatlarini taklif etishlarini kuzatishimiz mumkin.

Nemis urf-odatlariga ko‘ra go‘rkov dafn marosimini rasmiylashtirish borasida bajonudil maslahatlar berib, marhumni so‘nggi bor kuzatishda yakinlariga yordam berib, ularni qo‘llab-quvvatlaydi. Dafn marosimida mehmonlarning o‘tirish tartibi alohida o‘rin tutadi. Albatta dafn marosimida o‘tirish tartibi saqlanishi va oldingi o‘rindiqlar marhumning yaqin qarindoshlari uchun ajratiladi. Ular ma’ruzachi yoki pastor (evangelik ruhoniy) dan keyin qabrga boradigan yo‘lda tobut yoki urnani kuzatib boradilar. Dafn marosimida barcha sukunatda bo‘lishi va ayni paytda shaxsiy suhbatlar qurish odat tusiga to‘g‘ri kelmasligi kuzatiladi. Dafn marosimida musiqa, qo‘shiq, she’r, nutq, duo, gulbarglar solingan savat, oq sharlar yoki oppoq kabutarlar, hamdardlik, tasalli, vidolashuv, gullar va gulchambarlar kabi leksemalar alohida o‘rin tutadi. Nemis urf-odatlariga ko‘ra marhum bilan motam qo‘shig‘i kuylash yoki she’r o‘qish bilan xayrlashiladi.

Marhum uchun muhim deb nazarda tutilgan musiqa dafn marosimiga yoki vidolashuvga o‘zgacha ruhiyat baxsh etadi deb biladilar.



Odatda dafn marosimini rejalashtirish, tashkil etish, va musiqa tanlash marhumning yaqin kishilari, qarindoshlar, ma’ruzachi yoki pastor tomonidan belgilanadi. Qarindoshlar va do‘stlar ham dafn marosimida musiqiy chiqish bilan hamrohlik qilishlari mumkin. Talabga ko‘ra ijrochilar

professional musiqalarni taqdim etishlari yoki musiqa uchun o‘z takliflarini berishlari mumkin. Agar qo‘shiqlarni barcha yig‘ilganlar birgalikda kuylash niyatlari bo‘lsa, notalar va matnlar barchaga tarqatiladi. [6. 57 b]

Qabrda nutq so‘zlash yoki duo qilish odatiy holdir. Marhum bilan avval birinchi bo‘lib ma’ruzachi yoki pastor xayrlashadi. Keyin esa yaqin qarindoshlar xayrlashish uchun qabr oldiga keladilar. Ko‘plab qabristonlarda motam tutuvchilar qabr yoniga yashil gulbarglar solingan savat qo‘yishlari odat tusiga kirgan. Ayrim hollarda qarindoshlar ham gulbarglar solingan savatni qabrga qo‘yishlari mumkin. [7. 94 b]

Yosh bolalarning dafn marosimida oq sharlar yoki oppoq kabutarlar ifodalari alohida o‘rin tutadi. Vafot etgan bolalarning dafn marosimlarida ota-onalar umid belgisi sifatida osmonga oq sharlar yoki oppoq kabutarlar ko‘tarilishini xohlashlari kuzatiladi. Motam tutganlar marhum bilan xayrlashgandan keyin qabr boshida ularga hamdardlik bildirish odat tusini olgan. [7. 44 b] Agar bu bu xolat ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, qarindoshlar qabrdan uzoqlashishlari kerak bo‘ladi.

Vidolashuv va dafn marosimini tashkil qilishning turli ko‘rinishlari mavjudligi kuzatiladi. Klassik an’analar o‘rniga bugungi kunda ba’zi yangidan-yangi dizayn g‘oyalar joriy etilmoqda. Marhum qabrga qo‘yilgandan so‘ng oila a’zolar va yaqin qarindoshlar qabristonga, ya’ni qabr boshiga har yili marhumning dafn etilgan kuni, marhumning tug‘ilgan kuni, diniy bayram kunlari yoki istalgan vaqtda ham kelib, qabrga gullar va gulchambarlar qo‘yib turadilar.

XULOSA

Jamiyat taraqqiyotida an’analar va urf-odatlar, jumladan, to‘y, aza va ular bilan bog‘liq tantanalar katta o‘rin egallaydi. Shuning uchun har biri kishi urf-odatlar taraqqiyotga qanchalar zarurligini, zamonaviy davr talablariga qanchalar mos ekanini anglashi va ayni paytda, boshqa xalqlar udumlarini tubdan bilishi maqsadga muvofiq. Jumladan, o‘zbek va nemis davlatlarining har qaysisida motam munosabati bilan o‘tkaziladigan marosimlar turlicha bo‘ladi. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, turli xalqlar urf-odatlari bilan bog‘liq ayrim tushunchalar ba’zi izlanishlarning tadqiq obyekti bo‘lgan.

Mazkur maqolada o‘zbek va nemis xalqlari urf-odatlari, xususan, motam bilan aloqador nomlarning tavsifi, ularning qo‘llanilish o‘rni borasida qimmatli ma’lumotlar o‘rtaga tashlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Джурабоев А. Названия свадебых церемоний в узбекском языке: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. Ташкент, 1971; Хусаинова З. Ономасиологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на материалах Бухарской группы говоров): Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. Ташкент, 1984; Исманова О.О. Ўзбек тўй маросим фольклорида «Келин салом» жанри: Филол.фанлариномзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 1999; Ҳайитова Ф. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лингвистик талқини: Филол.фанлариномзоди... дисс.автореф. Тошкент, 1998;
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том. М.: РЯ, 24-бет.
3. Langenscheidt. Größwörterbuch Deutsch als Fremdsprache.Berlin und München:2008. S-164
4. М.М.Кахарова Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Фил.фан.номз.дисс.-Тошкент, 2009.-67-бет.
5. Reiner Sörries. Butzon U. Bercker GmbH, 2016. Ein letzter Gruß S-89
6. Dietrich Bonhoeffer. Die Psalmen (Das Gebetbuch der Bibel). München: 2016:S-25
7. Ulf Nillson. Eva Eriksson. Die besten Beerdigungen der Welt. Moritz: 2007. S-86